



“TASDIQLAYMAN”

Samarqand markaziy GQE

boshlig'i

S.Yu. Nematullayev

« 13 » 03 2024 yil

Samarqand markaziy geologiya qidiruv ekspeditsiyasi geologiya bo'limi
xodimlari safida o'tkazilgan yig'ilish

BAYONNOMASI № 4

2024-yil 13 mart

Samarqand shahri

Qatnashdilar: Samarqand markaziy GQE geologiya bo'limi xodimlari, jami 10 nafar.

Mavzu: “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023-yil 14-avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlar muhokamasi.

Yig'ilishni Samarqand markaziy GQE bosh geologi E.M. Mahammadiyev ochib, “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023-yil 14-avgustdagi 103-sonli buyrug'ining mazmun mohiyatini tushuntirdi.

Samarqand markaziy GQE korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'yicha mas'ul xodim A.B.Olmasov, yig'ilish ishtirokchilarini “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023-yil 14-avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlari bilan tanishtirdi. Xususan, axloq kodeksining tamoyil va maqsadlari, kasbiy madaniyat hamda xizmat faoliyatga oid qoidalar, xizmatdan tashqari, shuningdek, Jamiyatning mulkiga va ma'lumotlariga bo'lgan munosabat, axloq kodeksiga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik masalalari borasida malumotlar berildi. “Toza stol” qoidalariga rioya qilish zarurligini takidldi. “Toza stol” qoidalariga rioya qilishmaslikning oqibatlar va salbiy ta'siri masalalariga to'xtaldi. Shuningdek, manfaatlar to'qnashuvini boshqarish Siyosati, manfaatlar to'qnashuvi va yaqin qarindoshlar tushunchasiga ta'rif berildi. Ushbu siyosatning maqsadi, vazifalari, tamoyil va qoidalari, manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va ushbu siyosatga rioya qilmaganlik uchun javobgarlik, qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati, xabar berish usullari, aloqa kanallari, jalb qilingan xodimning huquqlari to'g'risida batafsil ma'lumotlar berildi.

Q A R O R

1. Samarqand markaziy GQE va tizim osti dala ekspeditsiyalarida “O'zbek geologiya qidiruv” AJning “Korrupsiyaga qarshi tasdiqlangan ichki me'yoriy hujjatlarni amalga kiritish to'g'risida”gi 2023-yil 14-avgustdagi 103-sonli buyrug'i bilan qabul qilingan ichki me'yoriy hujjatlarini muhokama qilish va shu mavzuda davra suhbatlari o'tkazish.

Bayonnoma tuzdi:

A.B. Olmasov



